

THERE IS NO FUTURE WITHOUT SPORT

Kucharova Fotima Dzhurakulovna

Is a teacher of "Physical Education" 36-IDUM in Miraki town of Shahrissabz district.

Phone: 90.3258691

SPORTSIZ KELAJAK YO‘Q

Ko'charova Fotima Djo'raqulovna

Shahrissabz tumani Miraki shaharchasidagi 36-IDUM "Jismoniy tarbiya" o'qituvchisi.

Telefon: 90.3258691

Annotatsiya: Jismoniy madaniyat va sport hamisha jamiyat hayotining ajralmas bir qismi bo'lib kelgan. Bizgacha mavjud bo'lgan ijtimoiy jamoalar ham o'z rivojlanishida jismoniy tarbiya va sportga katta ahamiyat bergan. Jismoniy madaniyat va sport jamiyatdagi hukmron sinflarning manfaatini ifodalashga xizmat qilib uni himoya qilgan va ularga yo'l ko'rsatgan. Shu bilan birga ularning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan desam mubolag'a bo'lmaydi.

Kalit So'Zlar: Sport jismoniy madaniyat, shaxsiy rivojlantirish, ommaviy jismoniy madaniyat, jamoaviy o'yinlar.

Oliy ta'lim muassasalarining dasturi shaxsning o'quv jarayonida o'quv tarbiya, jamoat ishlari bilan birga jismoniy madaniyat va sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojini qanoatlantirmaydi. Talabalar o'qish davomida jismoniy tarbiya va sport faoliyati shakllari bilan tanishib chiqishadi. Talabalar jismoniy madaniyat va sport bilan shug'ullanganda, o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi:

- o'z sog'ligini mustahkamlash, har tomonlama jismonan rivojlanish, jismoniy harakatlarni tarbiyalash, organizmining kasallikka bardoshligini oshirish;

- aql-idrok faoliyatini faollashtirish va toliqishni yengishga qaratilgan vositalarni topish.

Kommunikativ tarbiyaning mazmuni talabaning o'z o'rtoqlari bilan muloqotda bo'lishi, o'quv guruhidagi do'stlari bilan aloqani mustahkamlashi, irodasini tarbiyalash, jismoniy mehnatdan qochmaslikdir. Pedagog-tashkilotchi, jamoatchi-yo'riqchi, tarbiyachilik, sport bo'yicha hakamlik, ommaviy jismoniy madaniyat va sport tadbirlarining tashkilotchisi qobiliyatini, malaka va ko'nikmalarini tarbiyalab boradi.

O'smirlik davrida o'sib ulg'aygani sari, yoshlar o'z shaxsiyatini rivojlantiradilar va mustaqil shaxslarga aylanadilar. Yoshlar keksalarning kechinmalari, xotiralari bilan o'rtoqlashmaydi. Ular muammolarni idrok etish, baholash, tasniflash va farqlashning o'ziga xos usullarini, ularni ifodalash uchun o'z fikrlari va qarashlarini ifodalashga harakat qiladilar. Yoshlarning o'zgaruvchan va rivojlangan dunyoga munosabati va tajribalarini tushuntirish va yetkazishning o'ziga xos usullari ularning madaniyatini o'zgartirishga yordam beradi hamda jamiyatlarini yangi muammo, kamchiliklarni hal qilishga tayyorlaydi.

Fikrimcha, sport barcha madaniyatlarda universal elementdir. Sport, ayniqsa, yoshlar orasida keng tarqalgan bo'lib statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 15 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan yoshlarning 61 foizi o'tkazilgan sport tadbirlarida muntazam ravishda (haftasiga kamida bir marta) qatnashadi. Sport bilan shug'ullanishning yana bir sababi shundaki, sport yoshlarga ijtimoiy o'zaro munosabatda bo'lish imkoniyatini beradi, bu orqali ular jamiyatning muhim bir qismi bo'lishi va faollik olib borishda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va munosabatlarni rivojlantirishlari mumkin. Madaniyat va sport inson huquqlari va boshqa inson huquqlari bilan bog'liq. Shuningdek ular, inson huquqlari, jumladan, yoshlar huquqlariga ko'pincha e'tiroz bildiriladigan va suiiste'mol qilinadigan holatlar hamdir.

Sport, ayniqsa jamoaviy o'yinlar, tomoshabin yoki ishtirokchi bo'lamizmi, hayotimizning muhim qismidir. Ko'pchilik uchun futbol cheksiz suhbat manbai bo'lib, muxlislar o'z jamoasi bilan chuqur yaqinlikni

his qilishadi, yulduz futbolchilarga esa qahramon maqomi beriladi. Odamlarning go'zal, yosh, sportchi va sog'lom ko'rinishga intilishlari uchun hozirgi moda fitnes-klublar soni va vazn yo'qotish haqida nashr etilgan jurnallar sonida namoyon bo'ladi, sport maydonlari esa yuguruvchilar bilan to'la. Shaxmat kabi jismoniy kuchdan ko'ra aqliy mehnatni o'z ichiga olgan boshqa mashg'ulotlar ham sport hisoblanadi. Har qanday did va temperamentga mos keladigan sport turlari mavjud va shuning uchun sport hayotimizning qaysidir qismida bizning shaxsiyatimiz va madaniyatimiz bilan chambarchas bog'liq bo'lishi mumkin. Agar biz sport va o'yinlarning asosiy ahamiyati va maqsadiga chuqurroq nazar tashlasak, shu jumladan, yosh bolalar o'yinlari ham – barcha sport turlari, xoh futbol, xoh nayza uloqtirish yoki yoga, zarur hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish vositasi sifatida rivojlanganligi ayon bo'ladi. Shuning uchun ham sport rasmiy va norasmiy ta'lim o'quv dasturining muhim qismi sifatida qaraladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko'p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to'g'risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgani ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi. O'zbekiston rahbari bunga asos qilib, bugun dunyo miqyosida yoshlarning soni ikki milliarddan ortib ketgani, xaqlaro terrorizm va ekstremizm shiddat bilan o'sib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini muhim omillar sifatida asoslab berdi.

Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14-sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko'prog'i yoshlardan iborat bo'lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o'z qat'iy pozitsiyasiga ega, yurtida amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo'lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg'ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O'zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o'rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi. Hayot davomida inson sog'ligi, uning aqliy va jismoniy faolligi, ko'p yillik sport mashg'ulotlari davomida sport mahoratining shakllana borishi ustuvor jihatdan shu ikki tayyorgarlik turlari mazmuni va darajasi bilan belgilanadi. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida qo'yiladigan asosiy maqsad sog'liqni mustahkamlash hamda yuqori sport natijalariga erishish avvalombor yoshlikdan boshlab umumiy jismoniy sifatlarni rivojlantirish muhimligiga e'tibor qaratadi. Aksariyat olimlarning ta'kidlashicha, muayyan sport turi bo'yicha muntazam o'tkazilib boriladigan hamda hajm, shiddat va mazmun jihatdan to'g'ri tashkil qilingan mashg'ulotlar bolalar va o'smirlar organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan. Yoshlarni jismoniy tarbiyalashning ilmiy asoslangan zamonaviy tizimlari, shakl va uslublarini joriy etish, bolalar sporti bo'yicha ustozlar va pedagog kadrlarni mamlakatning yetakchi ilmiy hamda ta'lim markazlarida va chet ellarda tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish borasida Respublika Milliy Olimpiya Qo'mitasi, sport federatsiyalari, klub va tashkilotlari bilan o'zaro faol hamkorlik qilmoqda. Yoshlar ommaviy sportini rivojlantirish, istiqomat joylarida texnikaviy jihozlangan, zamonaviy o'smirlar sporti komplekslarini barpo etish ahamiyatini keng targ'ib qilishni tashkil etish va amalga oshirish, ushbu vazifalarni ro'yobga chiqarishga jamoatchilikni, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini, kichik va o'rta biznes, xususiy tadbirkorlik vakillarini, korxona va tashkilotlarni, shu jumladan xalqaro tashkilotlarni faol jalb etilishini oshirish quvonarli holdir. Mamlakatimiz hamda chet el investitsiyalarini, homiylik mablag'lari va grantlarni bolalar-o'smirlar jismoniy tarbiya va sporti sohasiga keng ko'lamda jalb etish borasidagi ishlarni tashkil qilish kabi masalalar "Jamg'arma"ning asosiy vazifalari deb belgilanishi muammoni o'ta dolzarb va qanchalik muhim ekanligidan dalolat beradi. Bugungi kunda ushbu farmon talablari doirasida yoshlar sportini ilmiy asosda tashkil qilishi bo'yicha talaygina tadqiqotlar tashkil etilib kelinmoqda, natijalar tahlillari mahalliy, respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar muhokamalariga qo'yilmoqda hamda samarali tavsiyalar amaliyotga joriy etib borilishi O'zbekiston bayrog'ini keng maydonlarda yanada baland ko'tarilishiga zamin yaratadi deb o'ylayman.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi «Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni,
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev raisligida 2017- yil 31- oktyabr kuni jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqarish tizimini takomillashtirish, ommaviy sportni rivojlantirish, iqtidorli sportchilarni tanlash va tarbiyalash, sohani malakali kadrlar bilan mustahkamlash hamda zamonaviy sport inshootlarini barpo etish
3. Abdullayev M.J. "YENGIL ATLETIKA" O'rta va uzoq masofalarga yuguruvchilar uchun murabbiyining kasbiy pedagogik faoliyati. O`quv qo`llanma. Buxoro. "Durdona" – 2015 yil.
4. Abdullayev M.J. "YENGIL ATLETIKA" To'siqlar osha yuguruvchilarni umumiy, maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish va o'rgatish uslubiyoti.O`quv qo`llanma. Buxoro. "Durdona" – 2013 yil.
5. <http://www.twirpx.com> – adabiyotlarning elektron varianti.
6. <http://www.referat.ru> - referat va elektron darsliklar
7. <http://www.SamDU.uz> - adabiyotlarning elektron variantlari